

Jamoatchilik kengashi

O'zbekiston respublikasi transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasining 2023-yil 24-yanvardagi 10-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar.

№	F.I.O	Tel raqami	Pochta manzili	Ish joyi va lavozimi
1.	Radjabov Fazil Axmedovich	901675945	Toshkent shahar, Mirobod tumani, Lokomotiv ko'chasi, 10-uy	«Avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot institute» unitar korxonasi Ilmiy-texnik rivojlanish bo'limi boshlig'i
2.	Zakirova Dilbar Nigmanxodjayevna	946498325	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish direksiyasi» davlat unitar korxonasi 1-toifali kadrlar bo'yicha inspektori
3.	Kaxarov Saidjalal Saidaxmedovich	911650040	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«O'zyo'lloyiha» loyiha-qidiruv instituti davlat unitar korxonasi direktor o'rinbosari
4.	Tulyaganov Sabirdjan Yuldashevich	712935387	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«Avtomobil yo'llari ilmiy-tadqiqot instituti» unitar korxonasi Malaka oshirish bo'limi boshlig'i
5.	Umarov Xasan Davlatboevich	909995517	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	Avtomobil yo'llari qo'mitasi Bosh yuriskonsult
6.	Kayumova Maxbuza Nigmatovna	712319041	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«O'zyulko'kalamzorlashtirish» unitar korxonasi devonxona ishlari bo'yicha 1-toifali inspektori
7.	Mirzadjanov Alisher Kamoldjonovich	712319046	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«O'zyo'lko'kalamzorlashtirish» unitar korxonasi O'simliklarni himoya qilish hamda obodonlashtirish va yashil xo'jaliklar ob'ektlarini saqlash boshqarmasi boshlig'i
8.	Raximova Fotima Axrarovna	946471858	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«Toshkent shahar mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati» davlat unitar korxonasi Umumiy bo'limi boshlig'i
9.	Raxmonova Zuxra Maxmudovna	712375113	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«Ma'muriy binodan foydalanish direksiyasi» unitar korxonasi Bosh buxgalteri
10.	Maxkamov Nosirjon Kayumovich	712684091	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	Respublika yo'l jamg'armasi Xodimlar bilan ishlash, tashkiliy, nazorat va tahliliy ishlar bo'yicha bosh mutaxassisi
11.	Karimov Baxtiyor Ozodovich	951446702	Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Quruvchilar ko'chasi, 12 A-uy	«Qo'yliq ko'priklar temirbeton qurilmalar tajriba zavodi» unitar korxonasi Texnika xavfsizligi bo'limi mehnat muhofazasi va texnika havfsizligi bo'yicha bosh mutaxassisi
12.	Turdiqulov Xushmurod Lapasovich	998042824	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«O'zyo'lloyiha» loyiha-qidiruv instituti davlat unitar korxonasi Matbuot kotibi
13.	Jumanyazov Otanazar Mashiribovich	940251300	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	«O'zyo'lloyiha» loyiha-qidiruv instituti davlat unitar korxonasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, innovatsion texnologiyalarni sohaga tadbiiq qilish va zamonaviy uskunalar bazasini shakllantirish bo'limi boshlig'i
14.	Nasirov Kamoliddin Mansurovich	909969141	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	“Avtomobil yo'llaridan foydalanish va texnik holatini tahlil qilish markazi” unitar korxonasi Loyiha smeta hujjatlari va xarajatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'limi boshlig'i
15.	Djuraboeva Ro'za Tuxtasunovna	712375113	Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 68-uy	“Ma'muriy binodan foydalanish direksiyasi” unitar korxonasi Xodimlar bo'limi boshlig'i

**O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi huzuridagi
jamoatchilikkengashi to'g'risidagi**

NIZOM

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom(keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llaridavlat qo'mitasi (keyingi o'rinlarda - qo'mita) xuzuridagi jamoatchilik kengashining(keyingi o'rinlarda - jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funktsiyalari, vakolatlaryniva faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilikkengashi o'z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchimaslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilikkengashi qo'mitaning markaziy apparati huzurida tashkil etiladi va uning faoliyatiqo'mitanining barcha hududiy bo'linmalari hamda tasarrufidagi tashkilotlariga tatbiqetiladi.

4. Jamoatchilikkengashi qo'mita raisining buyrug'i bilan tashkil etiladi.

5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiva qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga,O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga,O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkurNizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

7. Jamoatchilik kengashi to'g'risidagi nizom va unga kiritiladigan o'zgartishlarhamda qo'shimchalar qo'mita raisining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

2- bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlariva majburiyatlari

8. Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

qabul qilinayotgannormativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiyrivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobgaolinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini,jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosinita'minlash, qo'mita zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlarigadaxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko'rsatish,ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalarva dasturlarni ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'mita va uning mansabdor shaxslariningfaoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

birgalikda muloqotqilish, qo'mitaning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalariva fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlashuchun qo'mitani fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'prik" rolini bajarish;

fuqarolarninghuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalaryuzasidan qo'mitaning faoliyati haqidagi jamoatchilg/k fikrini tizimli monitoringqilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jumladanularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;

qo'mita faoliyatidakorruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarniishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korruptsiyaga qarshi kurashishbo'yicha olib borilgan ishlar ustidan motsitoring va tahlil o'tkazish, shuningdek,ularning natijalari bo'yicha takliflar tayyorlash;

qo'mita faoliyatiningochiqqligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish,uning faoliyati to'g'risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish,ularni yanada kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qo'mita faoliyatiniisloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganishva ularni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qo'mita faoliyatibo'yicha fuqarolar o'rtasida o'tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma'naviy-ma'rifiytadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflarishlab chiqish;

qo'mita xodimlariva ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ulargamalakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilganyoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarnikompleks

tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilashyuzasidan takliflar kiritish.

9. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagifunksiyalarni bajaradi:

qo'mitaning faoliyatigadoir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolikjamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishdaishtirok etadi, shuningdek, ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qo'mitagategishli takliflar kiritadi;

qo'mitaning fuqarolar,nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilano'zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirishyuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

qo'mita faoliyatigataalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagimavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek,kiritilgan takliflarni qo'mita xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangantadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

davlat dasturlariloyihalarini, tadbirlar rejalarini va qo'mita faoliyatiga, taalluqli, shu jumladankorruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidantakliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlaridoirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek,yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

qo'mita rahbarlariva xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridikshaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shujumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishiustidan monitoring o'tkazadi;

qo'mita xodimlariva ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ulargamalakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini yaxshilashda, shuningdek, ishdanbo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish muammolarinihal etishda ko'maklashadi;

xodimlar va ularningoila a'zolarini ijtimoiy va huquqiy himoya qilish masalalari bo'yicha qo'mita xodimlarivo'rtasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

qo'mita, uningxududiy bo'linmalarida va tasarrufidagi tashkilotlarida sog'lom ishchanlik muhinitirivojlantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash,xodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish,ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish, shuningdek,mazkur sohadagi ilmiy-

ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yichatakliflar ishlab chiqadi;

mamlakatda vaxorijda keng jamoatchilikni qo'mita faoliyatini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilayotgantizimli chora-tadbirlar haqida muntazam ravishda xabardor qilishni ta'minlaydi hamdamavjud muammolarni hal qilish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflarishlab chiqadi;

qo'mita faoliyatigabag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferentsiyalar, seminarlar, davrasuhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

qo'mita faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotganishlarning natijalarini tahdil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjudkamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviyaxborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilanhamkorlik qiladi.

10. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarishuchun:

qo'mita tomonidantashkil etiladigan bo'lajak ochiq hay'at majlislari va boshqa ommaviy tadbirlarto'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda'-mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

qo'mitaning,jumladan uning hududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarining binolari(xonalari) va boshqa ob'ektlarini qonun xujjatlarida belgilangan tartibda boribko'rish;

qo'mita, uninghududiy bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari rahbarlariga jamoatchilik kengashivakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan taqliflar kiritish;

qo'mita faoliyatisamaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamdaamalga oshirish uchun zarur bo'lgan qo'mitaning axborotlari, statistika va boshqamateriallarini belgilangan tartibda olish;

qo'mitaning qonunijodkorligi faoliyatida, qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarloyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

jismoniy va yuridikshaxslar murojaatlariga qo'mita tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlabolgan holda taxdil qilish;

qo'mita xodimlariningroziligi bilan ularning uy-joy, ijtimoiy- maishiy va xizmat shart-sharoitlari bilantanishish;

jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish; •

yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferentsiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

11. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;

qo'mita faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklolarga amal qilishi;

qo'mita va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

qo'mita va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'siqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiylikiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

32. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash qo'mita

tomonidan, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

33. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq ekanligi qo'mitaning rahbari tomonidan nazorat qilinadi.

34. Jamoatchilik kengashining va qo'mita raisining jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog'liq qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida buyruq

Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholash metodikasi

Jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligini reyting baholashga oid asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi

Jamoatchilik kengashining Avtomobil yo'llari qo'mitasida ochiqlikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini

takomillashtirish bo'yicha takliflari

Avtomobil yo'llari qo'mitasining jamoatchilik kengashining 2023-yil uchun ish rejasi
